

O'zbekiston - xalqaro miqyosdagi xavfsizlik va tinchlikni taminlash tashabbuskori

Sh.Shomurodov D.Nuriddinova QDPI magistrantlari

Tinchlik osoyishtalik har bir insonga dahldor bo'lgan hayotiy zaruratki, uni saqlash shu yurtda yashaydigan ahr fuqaroning muqaddas burchi bo'lmog'i kerak.

Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq terrorizmning xalqaro miqyos kasb etganligi, uning inson huquqlari va demokratiyaga zid ekanligi va unga qarshi jahon hamjamiyati birgalikda kurashishi lozimligi to'g'risida jahonning nufuzli minbarlaridan turib ta'kidlab kelindi. Ammo, afsuski jahon hamjamiyati I.Karimovning BMTda so'zlagan nutqida(1993-yil) YHXTning Istambul sammitida (1999-yil) davlat rahbarlari bilan uchrashuvlarida terrorizmning va uning manbalari, bazalari, qurol-yarog' keltirish yo'llari, ta'minot usullari, narkotik tarqatish so'qmoqlaridan mahrum qilish, ularni bartaraf etish uchun "Terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha Xalqaro Markaz" tuzish haqidagi amaliy takliflariga o'z vaqtida yetarli e'tibor qilinmadi. Agar bunday markaz o'z vaqtida tashkil etilib, dunyo hamjamiyati birlashib, terrorizmga qarshi siyosiy, diplomatik, moliyaviy, iqtisodiy, gumanitar, harbiy choralarni va xalqaro huquq doirasidagi boshqa har qanday tadbirlarni ishga solganda edi, balki 2001-yil 11-sentabrdagi AQSH poytaxti Vashingtonda ro'y bergan mash'um fojia sodir etilmagan bo'lardi. Nyu-york va Vashingtonda sodir etilgan terrorchilik harakatlardan so'ng AQSH boshchiligida terrorizmga qarshi kurash kaolitsiyasining tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surib kelinayotgan "Xalqaro Markaz" tuzish haqidagi taklifning amalga oshirilishi terrorizmga qarshi kurash yo'lida katta ijobiy yutuq

bo'ldi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Xalqaro kaolitsiya tarkibida bo'lishi uning mustaqillik yillarida olib borayotgan ichki va tashqi siyosatining asosiy vazifasidir. O'zbekiston Respublikasi va AQSH hukumatlarining 2001-yil 7-oktabrdagi Qo'shma Bayonoti va bu mamlakat hukumatlari o'rtasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida imzolangan bitim o'zaro majburiyat va kafolatlarning huquqiy asosi, umumiy manfaatlarining amaliy ifodasidir. Bu O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro' e'tibori ortib borayotganligi, jahon siyosatining faol ishtirokchisiga aylanganligini, u tanlagan siyosiy yo'lning to'g'riligini hamda o'z xalqi manfaatlaridan kelib chiqib say-karakatlar olib borayotganligini anglatadi,

Prezident Islom Karimovning strategik qarashlari avval boshdanoq mintaqaviy mojarolarning oldini olish, qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazmaslik, turli mamlakatlarda yashayotgan har xil millatlarga mansub xalqlarning bir maromdagi turmushiga tahdid qilmaslik siyosatidir.

Xavfsizlik tushunchasi nafaqat harbiy sohalarni balki, xavfsizlikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarini ham anglatadi. Inson va kam sonli millatlar huquqlari, ularning xavfsizligi kafolatlarini, ijtimoiy qadryatlardan teng bahramand bo'lishi va kafolatlarini ta'minlash, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash sohalarida hamkorlikka doir ma'lumotlarni markazlashtiruvchi yagona axborot tizimini yaratish zaruriyati ham paydo bo'ldi. Bu borada Prezidentimiz I.Karimov ayni shu maqsadda YHXT homiyligida mintaqada hamkorlikni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlikka eng muhim masalalari bo'yicha ekspert tavsiyalarini ishlab chiqadigan "Birlashgan Axborot fondi"ni tashkil etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Prezident I.Karimov mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy to'siq Afg'onistondagi terrorchilik va tolibonlik harakatlarining hozirgi kundagi tinchlikka tahdidlariga alohida e'tibor berib, jahon minbarlaridan turib, konferensiyalarda Afg'oniston muammosini o'rta qo'yib, tinchlik yo'lida jahon hamjamiyatini hamkorlikka chaqirdi. Shu o'rinda Prezident bu muammoni yechimi

sifatida “Afg’onistonga qurol-yarog’ yetkazib berishni qat’iy taqiqlab qo’yish zarurligini” ta’kidlab o’tadilar.

Afg’oniston tangligiga qo’shilib ketgan narkotik moddalarning oshkora oldi-sotdisi, terrorchilik, zo’ravonlik, qurol-yarog’ bilan savdo qilish, afg’on jamiyatida tinch hayot va bunyodkorlik haqida tasavvurga ega bo’lmagan butun bir avlodning vujudga kelganini, ularni barchasi nafaqat Afg’oniston va unga qo’shni davlatlarning balki, umumjahon muammosidir,

Hozirgi paytda Afg’oniston muammosini amaliy tarzda hal etish yo’llarini izlash bilan bog’liq masalalar jahon hamjamiyatining, BMT xavfsizlik kengashining diqqat markazida turibdi. Afg’onistondagi qarama-qarshi kuchlarning o’zaro kurashi faqat siyosiy parchalanishga va davlatning vayron bo’lishiga olib borishi mumkin. Aslida esa davlatni qaytadan tiklash Afg’oniston bo’yicha tinchlik rejasini muhim jihati bo’lishi kerak edi. Bu maqsadga erishish uchun buyuk davlatlar va mintaqadagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakati, Afg’oniston rahbarlarining siyosiy irodasi zarurdir.

“Afg’onistonda siyosiy urushlar davom etar ekan, mintaqadagi barqarorlik xavf ostida qolaveradi. Buni Markaziy Osiyoda yaxshi anglash mumkin. Bu sharoit demokratiya va islohotlarning rivojlanishiga to’sqinlik qilmoqda, butun mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini qisqartirmoqda”¹

BMT ma’lumotlariga ko’ra, Afg’onistonda yiliga 2.5 ming tonnadan ziyod giyohvand moddalar yetishtiriladi va turli yo’llar bilan dunyoning ko’plab mintaq va mamlakatlariga tarqatiladi. Afg’onistonda giyohvand moddalar savdosiga chek qo’yish va qurol-yarog’lar yetkazib berishni to’xtatib qo’yish orqali mintaqada tinchlik va barqarorlini ta’minlash mumkinligini Prezident I.A.Karimov o’zlarini xalqaro maydonlaridagi nutqlarida ta’kidlab o’tar ekan, bu yo’lda jahon hamjamiyatini bu tahdidlardan ogoh etib, ularni xalqaro hamkorlikka chaqiradilar. “Afg’oniston urush emas tinchlik va barqarorlik ob’ekti bo’lmog’i lozim”². Agar Afg’onistonda tinchlik hukmronlik qilsa, Afg’oniston hududi orqali Hind okeani portlari chiqadigan temir yo’l kommunikatsiyalari qurish bo’yicha yaxshi loyihalar

amalga oshirilib afg'onlarni tinch mehnat bilan qilish lozim. Yangi nisbatan qisqaroq kommunikatsiyalar va savdo iqtisodiy aloqalarini shakllantirish orqali dunyoning bu eng keskin mintaqasida tubdan o'zgarishlar bo'ladi. Albatta Afg'onistonda tinchlik hukmronlik qilsa nafaqat Afg'on xalqi, balki unga qo'shni bo'lgan davlatlar bilan bir qatorda butun mintaq miqyosida tinchlik mustahkamlanib, narkobizbes terrorizm kabi illatlarni oldi olingan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2012 y
2. Karimov I.A. "Maqsadimiz tinchlik va hamkorlik" T. 1995-y
3. Karimov I.A. "Bunyodkorlik yo'lidan" T. 1996-y